



UDK: 94:339(575.12)

*Dilshoda RASULOVA,*  
*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: dilshodarasulova@gmail.com*

*Termiz davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi J.Mirzayev taqrizi asosida*

### CHOR ROSSIIYASI DAVRIDA SURXON-SHEROBOD VOHASINING TARIXIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola XIX asr oxirida strategik jihatdan muhim bo'lgan Surxon – Sherobod vohasining Chor Rossiyasi davridagi tarixiy o'rni tahlilijihatdan yoritilgan. Buxoro amirligi tarkibiga bo'lgan Surxon-Sherobod vohasining bekklik, tumanlari kesimida tasniflangan. Shuningdek, ichki tashqi yo'llarning tuzilishi, geografiyasi tahlil etilgan. Bundan tashqari, vohaning iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyati ham yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Boysun, Sherobod, Denov, Chor Rossiyasi, Amudaryo, O'rta Osiyo.

### ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СУРХАН-ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА В ЭПОХУ ЦАРСКОЙ РОССИИ

Аннотация

В данной статье анализируется историческая роль Сурхан-Шерабадского оазиса, имевшего стратегическое значение в конце XIX века, в период царской России. В работе проведена классификация бекств и туманов Сурхан-Шерабадского оазиса, входившего в состав Бухарского эмирата. Также проанализированы структура и география внутренних и внешних путей сообщения. Кроме того, раскрывается экономическое и военно-стратегическое значение данного региона.

**Ключевые слова:** Бухара, Байсун, Шерабад, Денау, Царская Россия, Амударья, Средняя Азия.

### THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE SURKHAN-SHERABAD OASIS DURING THE TSARIST RUSSIAN PERIOD

Annotation

This article analyzes the historical role of the Surkhan-Sherabad oasis, which had strategic importance in the late 19th century during the period of Tsarist Russia. The study classifies the beks and districts (tumans) of the Surkhan-Sherabad oasis, which was part of the Emirate of Bukhara. It also examines the structure and geography of internal and external transportation routes. In addition, the economic and military-strategic significance of this region is revealed.

**Key words:** Bukhara, Baysun, Sherabad, Denau, Russia, Amu Darya, Central Asia.

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, Surxon-Sherobod vohasi Rossiya imperiyasining eng muhim strategik mintaqalaridan biriga aylandi. Vohaning qulay geografik joylashuvi, Amudaryo bo'yidagi chegara mintaqasi maqomi va Buxoro amirligi tarkibidagi ma'muriy tuzilishi unga alohida ahamiyat berdi. Surxon-Sherobod vohasining tarixiy rivojlanishi nafaqat mahalliy boshqaruv tizimi, balki tashqi siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq edi. Chor Rossiyasining bosqini va mustamlakachilik siyosati natijasida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, transport yo'llarining qayta tashkil etilishi, harbiy garnizonlarning joylashtirilishi va savdo aloqalarining kengayishi vohaning strategik ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bilan birga, Buxoro amirligi tarkibidagi bekkliklar tizimi orqali boshqariladigan Surxon-Sherobod vohasi ichki ma'muriy tuzilishi tufayli tarixiy tadqiqotlar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Surxon-Sherobod vohasining tarixiy ahamiyati, uning ma'muriy-hududiy tuzilishi, transport va geografik xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy va harbiy-strategik roli ilmiy tahlil qilingan.

Surxon vohasi tarixiy – geografik jihatdan Surxon – Sherobod daryolari oralig'ida joylashgan hududlarni o'z ichiga oladi. XIX-XX asr boshlarida bu hududda uchta bekklik mavjud bo'lib, ular Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan va ma'muriy chegaralari belgilangan. Bular:

Boysun bekkligi Sherobod daryoning yuqori qismi, Boysun, Darband, Qumqo'rg'on, Kakaydi, Bandixon, Qiziriq hududlarini o'z ichiga olgan;

Sherobod bekkligi Sherobod daryosining o'rta va yuqori qismi, Ko'hitang tog' etaklari, Termiz, Jarqo'rg'on, Muzrabod va Angor tumanlarini o'z ichiga olgan;

Denov bekkligi Denov, Sho'rchi, Oltinsoy, Qizilsuvning quyi qismi, Sangardak daryosi, Surxondaryoning yuqori oqimi va Uzun tumanini o'z ichiga olgan;

Chor Rossiyasi Buxoro amirligini vassal davlatga aylantirmagunga qadar Surxon vohasining geografik o'rni va holati haqida hech qanday ma'lumotga ega emas edi. Shuning uchun hududni mukammal bilish maqsadida Sharqiy Buxoroga XIX asr boshlaridan rus tadqiqotchilari va harbiylari kelgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotning asosiy adabiyotlar tahlili Chor Rossiyasi davrida Buxoro amirligiga yuborilgan harbiy amaldorlar, arxiv hujjatlari, mahalliy tarixchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, sayyohlar va geograf olimlarning rus tilida bitilgan xotiralar hamda hisobotlari tashkil etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Maev, Petrov, Vasilev, Karaulshchikov, Galkin va boshqalar Surxon vohasidagi yo'llarni o'rganib, uning geografik tavsifini keltirgan. Bundan ko'zlangan maqsad Surxon vohasining strategik ahamiyatini aniqlash bo'lgan. Surxon vohasining tarixiy geografiyasini o'rgangan N.Maev vohadan o'tuvchi yo'llarning oraliq masofasini o'rganib, oldin ma'lum bo'lmagan yo'llarni aniqlagan. Xususan, Tog'li Ko'hitang qishlog'idan 4 tomonga


– G'uzor, Tanga – Xaram (hozirgi Dehqonobod), Sherobod va Kalifga boradigan tog'li dovon yo'llarini aniqlangan. Bu yo'llar ichida Ko'hitangdan Sherobodgacha bo'lgan yo'l juda qulay bo'lgan. Harbiy maslahatchi Petrov Qashqadaryo, Surxondaryo va hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan beklidlarni o'zaro bog'lovchi yo'llarni aniqlagan. Boysun bekligidan Machaydan quyiga qarab ikkita tog' yo'li o'tgan bo'lib, chuqur dara bo'yab Darbandga kelgan. U yerdan Boysun, Sherobod va G'uzorga boruvchi yo'llar tutashib ketgan. Surxon vohasidagi asosiy yo'llar ikki taraflama bo'lib, Denovdan Surxon daryosi bo'yab o'tuvchi yo'l Termiz (Pattakesar) gacha, ikkinchisi Mirshodi orqali Sherobodga olib borgan[2]. Shuningdek aholi tomonidan XIX asr oxirida foydalanilgan yo'llardan Darband – Boysun – Denov – Regar – Hisor – Kofirnihon – Garm yo'nalishi ham mavjud bo'lgan[5]. Bu yo'l bir nechta tog' dovonlaridan o'tadi Kofirnihongacha bo'lgan yo'l ikki qismga bo'linib, ba'zi joylarida faqat ot – ulov bilan harakatlanish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Chor Rossiyasi davrida Surxon – Sherobod vohasining haqqoniy real tarixini yoritishda xolislik, haqqoniylik tamoyillari, shuningdek, yillar, davrlar ketma-ketligiga amla qilgan hoda tarixiy-xronologik metodologiyasi, qolaversa, arxiv hujjatlari, xotiralar, harbiy amaldorlar hisobotlari, statistic ma'lumotlarga tayangan holda manbашunoslik tahlili metodlaridan samarali foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Sharqiy Buxoro tog'li hududda joylashganligi va asosiy yo'llarning yo'qligi sababli mahalliy aholi orasida baland tog' dovonlaridan o'tadigan yo'llar tashkil etilgan bo'lib, yuk tashishda faqat ot, tuya va eshaklardan foydalanilgan. Bu yo'llarda noyabrdan martgacha barcha harakatlanish butunlay to'xtagan. Surxon – Sherobod vohasida asosiy harakatlanuvchi yo'llarida diametri bir sajjacha bo'lgan baland g'ildiraklarda shinalari juda yupqa temirdan yasalgan baland ikki g'ildirakli aravalardan foydalanilgan. Ot aravaga bog'langan bo'lib, haydovchi maxsus egarda o'tirib uzun arqondan tayyorlangan jilov bilan boshqargan. Bunday aravalarga tekis yo'llarda 30 – 100 funtgacha yuk ortilgan. Yo'lovchi tashiydigan aravalar ustiga maxsus kanvas chodir o'rnatilgan bo'lib, yo'lovchini yomg'ir va quyosh nuridan himoya qilgan. Mahalliy aholida rus tipidagi to'rt g'ildirakli aravalar mavjud bo'lmagan. Shuningdek, Boysun – Sherobod beklidlari aholisi ikki g'ildirakli fors aravalaridan ham foydalangan. Sherobodaryo Termizdan pastda Darband shahri yaqinida Boysun tog'laridan oqib o'tib Amudaryoga quyiladi. Daryo bo'yida Sherobod va Darband kabi qishloqlar

I-rasm.

Termiz-Samarqand pochta yo'nalishi. Darband stansiyasi. Suratda: Tepalikda baland qal'a devori bilan o'ralgan bino. (Suratkash A.A.Plexanovning "Termiz ko'rinishlari" fotoalbumidan. 1910-1913 yy.) N.F.15.946.



Термиз Самарқанд - термиз.  
Беклар, чина ва Мурабага.

joylashgan. Afsonalarga ko'ra Sherobod shahriga Muhammad payg'ambarning jiyani xalifa Ali tomonidan bunyod etilgan[5]. Daryo suvlari Sherobod begining dalalarini sug'orish uchun ishlatilgan.

Chor Rossiyasi tomonidan Termiz, Kerki va Chorjo'yda meteorologik stansiyalar tashkil etilib[3], hududlar iqlimi o'rganilgan. Xonlikning Sharqiy Buxoro qismida iqlim mo'tadil bo'lib, mehnat unumdorli va qishloq xo'jaligining rivojlanishiga sabab bo'lgan[5]. Sherobod Surxon vohasidagi aholisi eng kam hududlardan biri hisoblanadi. Buxoro xonligining sharqiy qismidagi ulkan yerlar deyarli aholi tomonidan umuman foydalanilmaydi va faqat rus fuqarolarini ko'chirish hisobiga bu yerlarni qayta tiklash mumkin bo'lgan. 1910-yil harbiy injener Ananev Turkiston general-gubernatoriga maktub yo'llab, Surxon vohasini ruslar tomonidan o'zlashtirilishining istiqbollarini asoslab bergan[1]. Buxorodan yer sotib olish masalasini birinchi bo'lib, kapitan Ananyev va knyaz Andronnikov ishlab chiqqan. 1912-yil 23-fevral qushbegi Mirzo Nasrullobiy va Ananyev o'rtasida shartnoma imzolangan. Kelishuv 17 banddan iborat bo'lib, Sherobod va Boysun beklidlaridan 72 500 sug'orilmaydigan amlak yerlar 99 yilga Chor hukumatiga berilgan. Bu hududda to'rt yil davomida o'n ming rus oilasini ko'chirib keltirilishi va ular Surxondaryo suvi bilan ta'minlanishi rejalashtiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad, Surxondaryo orqali sug'orish kanallarini bunyod etish va konsessiya yerlarini qishloq xo'jaligi uchun yaroqli qilish vazifasi yuklangan. Buning uchun ijarachi 8 yil 6 oy davomida ijara haqidan ozod etilgan. Bu muddat tugagandan so'ng, 100 000 rubl to'lashi belgilandi. Demak amirlikdagi yerlar rus konsessiyachilariga qulay shartlarda va juda past ijara narhlarida berilgan.

1916-yil Sherobod kompaniyasi turli loyihalar uchun 2,5 mln rubl sarflagan. Ammo rus tadbirkorlari turli xil muammolarga duch kelgan. Masalan, 1916-yil 23-mart kuni kompaniya muhandisi Keltser va agronom Skurskiyni mingdan ortiq mahalliy aholi Jarqo'rg'on qishlog'ida qo'lga olib, ularga fermerlar yerini tortib olmaslik to'g'risidagi tilxatni mzolashga majbur qilishgan[4]. 1916-yil O'rta Osiyoda yuz bergan qo'zg'olon ta'siri Sherobodda ham aks etgan bo'lib, qo'zg'olonchilar amirlikdagi rus konsessiya huquqlarini bekor qilishni talab qilgan. 1917-yil Turkiston general - gubernatori A.N. Kuropatkin va siyosiy agent Millerning Sherobodga kelishi va mahalliy aholi bilan kelishishi natijasida muammolar tinch yo'l bilan hal qilingan.

2-rasm.

Pattakesar. Bojxona ro'parasidagi ko'cha. Uzun poxsadan qurilgan bino (bojxona) ro'parasida odamlar to'dalanib turibdi. (Suratkash A.A.Plexanovning "Termiz ko'rinishlari" fotoalbomidan. 1910-1913 yy.) N.F.15.954.



**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Chor Rossiyasi davrida Surxon – Sherobod vohasi O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan biri sifatida muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan. Surxon vohasi siyosiy jihatdan Rossiya imperiyasining janubiy chegaralarini mustahkamlashda muhim tayanch hudud bo'lib xizmat qilgan. Surxon vohasining Amudaryo bo'yida

joylashganligi uning harbiy – strategik chegara hudud sifatida podsho Rossiyasining tashqi xavfsizlik tizimida muhim ro'l o'ynagan. Surxon – Sherobod vohasi Chor Rossiyasi davrida iqtisodiy - siyosiy va harbiy ahamiyat kasb etgan muhim markazlardan biri bo'lgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Botirov I.T. Eski Termiz tarixiy manbalarda – Toshkent, 2010.
2. Ochildiyev F. Surhon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) / mas'ul moharrir. Sagdullayev A, Rajabov Q. – Toshkent: Abu matbuot – konsalt, 2008. – 168 b.
3. Temiz buyuk yo'llar chorraxasidagi ko'cha va yangi shahar. – Toshkent, 2001. -108 b.
4. Тухтаметов Т.Г. Русско – Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. Победа Бухарской народной революции. / ответ редактор. Ишанов А.И. – Т: Фан, 1966. – С. 117-121.
5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство том I. / От. Ред. Березовский В. - СПб: Русская Окоропечатия, СПб: 1911. – 357 с.